Kimyo sanoatining ichki hayoti, muhandislik kasbining haqiqiy qiyofasi va yirik korxonalardagi imkoniyatlar — endi bitta loyihada!

// 15.06.2026
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoatining-ichki-hayoti-muhandislik-kasbining-haqiqiy

“O‘zkimyosanoat“ AJ hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamkorligida yangi media loyiha — “KIMYOGAR MUHANDIS” dasturini taqdim etamiz.

Loyihaning ilk sonida yurtimizning yirik sanoat korxonalaridan biri — **“**Maxam-Chirchiq**“** faoliyati bilan yaqindan tanishasiz. Korxonadagi:

- zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari
- muhandis va mutaxassislarning kundalik mehnati
- ishga qabul qilish tartiblari
- kasbiy rivojlanish imkoniyatlari
- muvaffaqiyat ortidagi haqiqiy hikoyalar sizni kutmoqda.

“KIMYOGAR MUHANDIS” — bu nafaqat korxonalar haqida, balki kimyo sanoatida o‘z kelajagini ko‘rayotgan yoshlar uchun ilhom va amaliy yo‘l-yo‘riq manbai ham.

Birinchi manzil — “Maxam-Chirchiq“ AJ.